


O'QUVCHILAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK VA AXLOQIY RIVOJLANISHIDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING TA'SIRI

Parpiyeva Dilfuza Arslonbekovna

*Toshkent viloyati Ohangaron tuman MMTBga qarashli
31-maktabning amaliyotchi psixologi*



Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi - bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik - ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy - individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg'a surganlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi [1.47].



Ilk o`rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy o`zining “Fozil odamlar shahri” nomli kitobida pedagog muallimlar haqida qimmatli fikrlarini bildirib o`tganlar: - “ Insoniy vujudan maqsad - eng oliy baxt-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt- saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o`ziga g`oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo`lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi darkor. So`ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog`i lozim bo`ladi. Baxt-saodatga erishuv va tug`ma qobiliyatlarning rivojlanishi o`z-o`zicha bo`lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug`iladi. O`zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko`tarish ham har kimning qo`lidan kelavermaydi.[4 .290 b].



Darhaqiqat, o`qituvchi har bir bolaga kichikligidan ta`lim –tarbiya va bilim beradi. Uning qiziqishlari, kelajak hayotida erishmoqchi bo`lgan orzulariga qadamma-qadam reja asosida qanday borishi va nimalarni o`rganishi lozimligini tushuntirib boradi. Ulardagi layoqatlarni pedagogik mahorati orqali aniqlab olib qobiliyat darajasida shakllantiradi. A.Distverg o`qituvchining ta`limdagi rolga yuqori baho berib, u o`z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o`quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O`qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo`lishi kerakligini ta`kidlab o`tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o`qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo`tadillik, g`ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o`qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini o`z asarlarida yoritib bergan. A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari G`arb mutafakkirlari g`oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o`z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko`ra, o`qituvchining asosiy xislati - bu uning bolalar bilan munosabatda bo`layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining

mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisholmaydi. O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagog olim V.A.Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: "o'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi.



Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammaligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, "agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat ota va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala xislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'ladi". Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi pedagogik nazokatisiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Har bir pedagogning bosh vazifasi o'z ishining ustasi bo'lishdir. Pedagogik mahorat o'z kasbi sohasida individuallikni yorqin ifoda etish sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat unsurlari kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan belgilanadi. Ularga loyihalash, konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, gnostik ko'nikmalari kiradi.

Hozirgi davrda zamonaviy o'qituvchi shaxsida juda ko'p fazilatlar namoyon bo'lishi zarur. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-

tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi, ta'lim tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va usullardan unumli foydalana olish imkoniyatiga, ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogic mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, imo-ishora, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning bir qator sifat va xususiyatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. U kiyinish madaniyatiga (soda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatni ko'p jalb qiladigan turli xil taqinchoqlar va bezaklar) dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmasligi kerak. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.



Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar. Maqsadni amalga oshirishda shahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar yoki hikmatlar o'rgatadilar. O'quvchi qanday sohani, qanday kasbni tanlashidan qat'iy nazar tanlagan sohasida oliy darajaga erishuvi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida o'qituvchilarning ta'siri juda yuqori o'rinda turadi. Bilim, axloq, ta'lim-tarbiya, madaniyat, yurish-turish, kiyinish va muomala madaniyati bilan hammaga o'rnak bo'la oladigan shaxs bo'lib yetishishiga ijobiy ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyeva S.T. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari" maqola. Евразийский Научный Журнал, 2020. (1-soni, 68 b.)
2. Innovation and Global Issues - Congress 4. Lara, Antalya – 2018.
3. Слостенин А.В.. Общая педагогика. – М.: Педагогика, 2003.
4. Forobiy Abu Nasr. -“ Fozil odamlar shahri”. “Yangi asr avlodi”, 2016.